

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	18
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	35
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	48
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSessorLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	68
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	106
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	117
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	123
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	127
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	132
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	143
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	151
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	161
Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI	166
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	178
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	184
O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	196
Ro‘zmetov Mansur	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	215
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	225
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ.....	231
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	236
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	241
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	248
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI.....	255
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	263
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI.....	268
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	272
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	278
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV.....	283
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI.....	290
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	293
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	298
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	303
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	308
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	312
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	331
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	354
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	375
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	379
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	403
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI	411
Karimova Shaxnoza O'ktamovna	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH	423
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
Utkirova Mamura Faxriddin qizi	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	436
Isakov Axmadali Esanbayevich	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	444
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI	452
Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI	471
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTЛАRI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI	477
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
Alimova Dilafro'z Tohir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	488
Suvonov Ibrohim Izbosarovich	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI.....	492
Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	497
Koriev Orif Azizovich	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	502
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....	507
Alimov Baxodir Batirovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	513
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI	516
Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich	
MINTAQА TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI	520
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR	526
Nazarova Shohista Tolmas qizi	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	531
Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	537
Umurzakov Dilshodbek Xakimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li	
MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
Maxmudov Jasurbek Ergashevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA.....	553
Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI.....	560
Turdiyeva Muqaddas Umarovna	
МОДЕЛЬ ЦИФРОВОГО ОБЪЕКТА ДЛЯ АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ ЦИФРОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБЪЕКТОВ.....	565
Гулямов Шухрат, Шамсутдинова Винера, Караханова Алсу, Зайниддинова Зебинисо	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI	571
Yuldoshov Otabek Jovli o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING XALQARO KAPITAL BOZORLARIGA INTEGRATSIYASI VA INVESTITSION SALOHİYATINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	576
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSH SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBAT USTUNLIKLARINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	583
Asenbaeva Aydaygul, Toshqulova Aziza	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	587
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	591
Halimov Humoyunbek Tohirjon o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
SCENARIO-BASED ECONOMETRIC EVALUATION OF REAL INVESTMENT EFFICIENCY IN SMALL BUSINESS ACTIVITIES.....	601
Otajanov Umid Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	611
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	619
Boltayev Zokirjon Otazarovich	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SUV RESURSLARI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	622
Sapayev Azamat Rustamovich	
ФИСКАЛЬНЫЕ ПРАВИЛА В СРЕДНЕСРОЧНОМ БЮДЖЕТНОМ ПЛАНИРОВАНИИ.....	626
Е.М. Соң	
BUXORO VILOYATINING YALPI HUDUDIY MAHSULOT DINAMIKASI VA UNING TARMOQ TUZILMASIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR TAHLILI	631
Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	636
Raupov Shuxrat Soyibovich	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	636
Raupov Shuxrat Soyibovich	



MARKETING FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA REAL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI SSENARIYLAR ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH	652
Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna	
QURILISH KORXONALARIDA XARAJATLARNI KLASSIFIKASIYA QILISH VA HISOBGA OLISH TIZIMI	663
Toshimov Azizbek Hakimovich	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH.....	667
Jobborov Elmurod Normo‘minovich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING HUDUDIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI...	672
Jo‘rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
HUDUDLARARO IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	677
Erkinova Dildora Ravshonbek qizi	
XORIJIY BANKLAR AMALIYOTIDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH TAJRIBASI	683
Kudaybergenova Guzal Kuanishbayevna	
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ РАБОТОСПОСОБНОСТИ МЕТАЛЛОРЕЖУЩЕГО ИНСТРУМЕНТА ПРИ ОБРАБОТКЕ ТРУДНООБРАБАТЫВАЕМЫХ МАТЕРИАЛОВ.....	687
Желтухин Андрей Владимирович	
AUDITORLARNING PROFESSIONAL FIKR VA MULOHAZALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO ILG‘OR TAJRIBALARNING AHAMIYATI	694
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
SOVUTGICH QURILMASIDAGI KONDITSIONERDAN AJRALIB CHIQAIDIGAN ISSIQLIKDAN MAHSULOTLARNI QURITISHDA FOYDALANISH	699
Nuritov Ikrom, Iboeva Sevinch, Sultonmurodova Xuriniso	
ORGANISATIONAL BEHAVIOR IN ENTERPRISES AND ITS IMPACT ON MANAGEMENT DECISION-MAKING: A REVIEW OF THEORIES	704
Djumanov A.A.	
O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA DOLZARB MUAMMOLARI	714
Taniyev Mirzoxid Xurramovich, Mannabova Madina Sunnatillo qizi	
MILLIY GO‘SHT CHORVACHILIGINING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA TASHKILY-IQTISODIY OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA‘SIRI.....	721
Kushakov Faxriddin Baxtiyarovich	



MILLIY GO'SHT CHORVACHILIGINING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA TASHKILIY- IQTISODIY OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Kushakov Faxriddin Baxtiyarovich

Guliston davlat univerisiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: faxriddinkushakov413@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy go'sht chorvachiligining innovatsion rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy omillarning ta'siri va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda chorvachilik xo'jaliklarining ishlab chiqarish tuzilmasi, resurslardan foydalanish darajasi, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hamda hududiy xususiyatlar o'rganildi. Shuningdek, go'sht chorvachiligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritildi. Olingan natijalar tarmoq samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: go'sht chorvachiligi, innovatsion rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy omillar, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv tizimi, hududiy rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируется влияние организационно-экономических факторов на инновационное развитие национального мясного скотоводства и их роль в повышении эффективности производства. Исследуются производственная структура животноводческих хозяйств, уровень использования ресурсов, показатели экономической эффективности и региональные особенности. Также рассматриваются вопросы совершенствования инновационных подходов и механизмов управления развитием мясного скотоводства. Полученные результаты способствуют разработке научно-практических рекомендаций по повышению эффективности отрасли.

Ключевые слова: мясное скотоводство, инновационное развитие, организационно-экономические факторы, экономическая эффективность, система управления, региональное развитие.

Abstract: The article analyzes the impact of organizational and economic factors on the innovative development of national beef cattle farming and their role in improving production efficiency. The study examines the production structure of livestock farms, the level of resource utilization, economic performance indicators, and regional characteristics. It also addresses the improvement of innovative approaches and management mechanisms in the development of beef cattle farming. The obtained results contribute to the development of scientifically grounded practical recommendations aimed at improving sector efficiency.

Keywords: beef cattle farming, innovative development, organizational and economic factors, economic efficiency, management system, regional development.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimiz agrar sektorini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholining go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirish masalalari davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, go'sht chorvachiligini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Milliy go'sht chorvachiligi tarmog'ida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish tuzilmasining optimalligi hamda tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining takomillashmaganligi tarmoq rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, chorvachilik xo'jaliklarining hududiy xususiyatlari, yem-xashak bazasining holati va ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasi tarmoq samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Sirdaryo viloyati chorvachilikni rivojlantirish uchun nisbatan qulay tabiiy-iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lib, go'sht chorvachiligi tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, xo'jaliklar miqyosini maqbul shakllantirish hamda resurslardan foydalanish darajasini yaxshilash imkoniyatlari mavjudligi kuzatilmoqda. Bu esa tarmoqni innovatsion asosda rivojlantirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun



muhim zamin yaratmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi milliy go'sht chorvachiligining innovatsion rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganish hamda ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari asosida tarmoqni barqaror rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Go'sht chorvachiligini rivojlantirish va uning hududiy omillarini baholash masalalari iqtisodiyot va agrar sohada faol tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar chorvachilik tarmog'ining samaradorligini oshirishda resurslardan oqilona foydalanish, hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda go'sht chorvachiligining rivojlanishi ko'p jihatdan tabiiy-iqlim sharoiti, yem-xashak bazasi va texnologik darajaga bog'liqligi asoslab berilgan. Xususan, agrar iqtisodiyot yo'nalishidagi tadqiqotlarda chorvachilik samaradorligini oshirishda intensiv ishlab chiqarish usullarini joriy etish, seleksiya va genetik salohiyatni yaxshilash, shuningdek, logistika va bozor infratuzilmasini rivojlantirish muhim omillar sifatida qayd etiladi.

Go'sht chorvachiligi va uni rivojlantirish omillarini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ushbu tarmoqning samaradorligi ko'p jihatdan genetik, iqtisodiy va hududiy omillar bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Xususan, klassik tadqiqotlarda chorvachilikni rivojlantirishda irsiy (genetik) va muhit omillari o'zaro ta'siri muhim o'rin tutishi qayd etilgan bo'lib, ishlab chiqarish natijalari nafaqat tanlangan zotlarga, balki ularning yashash muhitiga ham bevosita bog'liq ekanligi asoslab berilgan [1].

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra, go'sht chorvachiligini samarali rivojlantirish uchun ishlab chiqarish tizimlarini hududiy sharoitlarga moslashtirish zarur. Jumladan, chorvachilik tizimlari turli hududlarda intensiv va ekstensiv shakllarda rivojlanib, ular tabiiy-iqlim sharoiti, ozuqa bazasi va bozor infratuzilmasiga qarab farqlanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish tizimining to'g'ri tanlanishi tarmoq rentabelligini oshirishda muhim omil hisoblanadi [2].

Ilmiy manbalarda chorvachilik samaradorligini oshirishda resurslardan foydalanish darajasi va iqtisodiy omillar alohida o'rganilgan. Xususan, naslchilik maqsadlarini shakllantirishda daromad va xarajat manbalarini aniqlash, biologik belgilarni iqtisodiy qiymatlar bilan bog'lash muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi. Bu esa chorvachilikni rivojlantirishda faqat biologik emas, balki iqtisodiy yondashuv ham zarurligini ko'rsatadi [3].

Shuningdek, tizimli yondashuv asosidagi tadqiqotlarda chorvachilik ishlab chiqarishini rivojlantirishda hududiy sharoitlarga mos genetik resurslar, boshqaruv usullari va marketing strategiyalarini uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi [4].

So'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, go'sht chorvachiligini rivojlantirishda genom texnologiyalaridan foydalanish seleksiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Jumladan, D. J. Johnston va hammualliflarining izlanishlarida yosh hayvonlarni baholash aniqligi past bo'lgan iqtisodiy muhim belgilar bo'yicha genom seleksiyasi (GEBV) orqali yuqori aniqlikka erishish mumkinligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari genetik progress sur'atlari ko'p jihatdan genotip va fenotip ma'lumotlar hajmiga, shuningdek, yuqori zichlikdagi SNP markerlardan foydalanishga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, genom ma'lumotlarini an'anaviy naslchilik ko'rsatkichlari bilan integratsiya qilish chorvachilik samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Ammo mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish uchun keng ko'lamli ma'lumotlar bazasi va takomillashgan seleksiya tizimi talab etiladi [5].

Ilmiy adabiyotlarda go'sht chorvachiligida seleksiya samaradorligini oshirish uchun aniq belgilangan seleksiya maqsadlari va ko'p belgili indekslardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Jumladan, J. L. Hazel tomonidan asoslangan yondashuvga ko'ra, hayvonlarni baholashda iqtisodiy jihatdan muhim belgilarni yagona seleksiya indeksiga birlashtirish genetik progressni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, go'sht chorvachiligida buqalarning tanlanishi va naslchilik qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy qiymatlar asosida shakllantirilgan subindekslar muhim rol o'ynaydi, ayniqsa avlodning to'liq go'sht uchun yetishtirilishi yoki urg'ochi qismining nasl uchun qoldirilishi holatlarida. Shu bilan birga, turli ishlab chiqarish tizimlari va zotlar kesimida iqtisodiy omillarni hisobga olish seleksiya samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi [6].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda esa hududiy omillarni baholashda iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullardan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlarda chorvachilik tarmog'ining hududlar kesimida rivojlanish darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ishlab chiqarish rentabelligi o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlangan. Shuningdek, hududiy ixtisoslashuvni shakllantirish orqali tarmoq



samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlarda, jumladan, S. Balaeva tadqiqotlarida chorvachilik tarmog'ining hozirgi holati chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda ishlab chiqarish hajmi, chorva mollari soni va ularning mahsuldorligi pasayishini sekinlashtirishga qaratilgan choralarga qaramay, tarmoq barqarorlashuvi yetarli darajada emasligi ta'kidlanadi. Asosiy cheklovchi omillar sifatida energiya resurslari va kombikorm narxlarining yuqoriligi, xomashyo ishlab chiqarishning qisqarishi hamda davlat xaridlarining yetarli emasligi ko'rsatilib, bu holat ko'plab qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ahvolini og'irlashtirib, kreditorlik va debitorlik qarzdorliklarining ortishiga olib kelmoqda. Natijada chorvachilik tarmog'idagi ushbu muammolar aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ayniqsa jamoat sektorida ishlab chiqarish qisqarishi sharoitida xususiy sektor o'sishi umumiy ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshishiga va davlat resurslariga yetkazib berishning yaxshilanishiga olib kelmayotgani qayd etiladi [7].

L. Gorinin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda go'sht mahsulotlari bozorini rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarini tanlash, qo'llab-quvvatlash hajmlarini belgilash hamda tarmoq samaradorligini oshirish zaxiralarini aniqlash masalalari chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor nafaqat go'sht ishlab chiqarish, balki unga bog'liq tarmoqlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va xomashyoni chuqur qayta ishlash tizimini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, federal okrug tarkibiga kiruvchi hududlar resurslarini birlashtirish orqali yagona rejalashtirish va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan [8].

V. I. Truhachev, M. G. Leshcheva va Yu. A. Yuldashbaev tomonidan olib borilgan tadqiqotda Rossiya go'sht bozori holati va uning rivojlanish istiqbollari kompleks tahlil qilingan. Mualliflar go'sht mahsulotlari bozorida talab va taklif muvozanati, ishlab chiqarish samaradorligi hamda tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini o'rganib, chorvachilikni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, go'sht ishlab chiqarish zanjirida xomashyoni chuqur qayta ishlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsion faollikni oshirish orqali tarmoqning barqaror rivojlanishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan [9].

V. S. Buyarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda texnologik modernizatsiya, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy omillarni to'g'ri uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, chorvachilik tarmog'ida xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi asoslab berilgan [10].

M. S. Kholova, F. Kurbonova va I. A. Malikov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chorvachilik mahsulotlari bilan mamlakatni barqaror ta'minlashning asosiy mezonlari va indikatorlari ishlab chiqilgan. Mualliflar go'sht mahsulotlari bozorida barqarorlikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish hajmi, resurslardan foydalanish samaradorligi, oziq-ovqat xavfsizligi darajasi hamda ichki talab va taklif muvozanati kabi ko'rsatkichlarning kompleks tahlili muhimligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, chorvachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni o'zaro bog'liqlikda baholash zarurligi asoslab berilgan [11].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Jumladan, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, yem-xashak yetishtirishni kengaytirish, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish va ichki bozorni barqaror ta'minlash masalalari alohida e'tiborga olingan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda hududiy omillarning kompleks bahosi yetarli darajada yoritilmaganligi ham kuzatiladi.

Jamalova tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida chorvachilik tarmog'ining hozirgi holati hamda aholini go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Muallif so'nggi yillarda tarmoqda ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi, go'shtga bo'lgan ichki talabning ortishi va uni qondirishdagi mavjud muammolarni ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, chorvachilikni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda aholini go'sht mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar zarurligi asoslab berilgan [12].

Yu. Naumov va I. Pugach tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda chorvachilik tarmog'ining holati, uning iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish muammolari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar ta'kidlashicha, chorvachilik qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining muhim qismini tashkil etib, qishloq aholisi daromadlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, tarmoqda yem-xashak bazasining qisqarishi, kichik ishlab chiqaruvchilarning ustunligi, resurslar yetishmovchiligi hamda zamonaviy zootexnik standartlarni joriy etishdagi cheklovlar asosiy muammolar sifatida qayd etiladi. Tadqiqotda davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va veterinariya xizmatlari orqali qo'llab-quvvatlash amalga oshirilayotgani, biroq ishlab chiqarish infratuzilmasini kompleks rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu asosda chorvachilik samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishni yiriklashtirish va resurslar balansini yaxshilash muhim yo'nalish sifatida ko'rsatilgan [13].

Umuman olganda, mavjud ilmiy ishlarda go'sht chorvachiligini rivojlantirishning alohida jihatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, hududiy omillarning o'zaro ta'siri va ularning kompleks samaradorlikka ta'sirini baholash masalalari yetarli darajada tizimli yondashuv asosida tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu maqolada hududiy omillar samaradorligini kompleks baholash zaruratini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda milliy go'sht chorvachiligining innovatsion rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganish va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida chorvachilik xo'jaliklarining ishlab chiqarish tuzilmasi, resurslardan foydalanish darajasi, yem-xashak bazasi holati, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasi ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, hududlar kesimida chorvachilik tarmog'ining rivojlanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Tashkiliy-iqtisodiy omillarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini baholashda iqtisodiy-statistik usullar, xususan, strukturaviy tahlil va ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish usullaridan foydalanildi. Bu orqali ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar darajasi, daromad va rentabellik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, go'sht chorvachiligini rivojlantirishda innovatsion boshqaruv yondashuvlari, resurslardan samarali foydalanish yo'llari hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Olingan natijalar asosida Sirdaryo viloyati sharoitida go'sht chorvachiligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Go'sht chorvachiligi qishloq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanishi bilan bir qatorda, keng rivojlanish salohiyatiga ega murakkab yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi o'ttiz yil davomida yirik shoxli qoramollar soni hamda mol go'shti ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarida turli bosqichdagi o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, bu holat tarmoqni modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Aksariyat qishloq xo'jaligi subyektlarida go'sht chorvachiligi faoliyatini takomillashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda tarmoq rivojini jadallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, so'nggi 10–15 yil davomida ayrim hududlarda go'sht yo'nalishidagi qoramollar sonining tiklanishi kuzatilib, ularning umumiy pog'onadagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Mazkur ijobiy siljishlar tarmoqning barqaror rivojlanish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatib, mol go'shti ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda uning aholining keng qatlamlari uchun iqtisodiy jihatdan yanada ommabopligini ta'minlash bo'yicha yangi istiqbollarni yuzaga chiqarmoqda.

Mazkur sharoitda go'sht chorvachiligini samarali rivojlantirish, ayniqsa, yuqori mahsuldor qoramollar bosh sonini ko'paytirish va ishlab chiqarishni intensivlashtirish muhim vazifa sifatida maydonga chiqadi. 2010–2024-yillar davomida yirik shoxli qoramollar sonining 1115,6 ming boshdan 2137,6 ming boshgacha oshgani ushbu yo'nalishda ijobiy dinamik o'sish mavjudligini ko'rsatadi. Tahlillar ushbu jarayonning bosqichma-bosqich kechganini, dastlabki yillarda yuqori o'sish sur'atlari, keyingi davrda nisbiy sekinlashuv, so'nggi bosqichda esa yana barqaror o'sish kuzatilganini tasdiqlaydi. Bu esa chorvachilikni qo'llab-quvvatlash siyosati, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, naslchilik ishlarini takomillashtirish hamda zamonaviy texnik-texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, tarmoqda barqaror o'sishni ta'minlash uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, yirik shoxli qoramol go'shti mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi tizimida eng muammoli mahsulot turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish orqali go'sht mahsulotining iqtisodiy jihatdan ommabopligini ta'minlash zarurati mavjud. Chunki nisbatan arzon, biroq oziqaviy qiymati past bo'lgan boshqa go'sht turlari bilan solishtirganda, mol go'shti aholining keng qatlamlari uchun yetarli darajada mavjud emas. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi milliy go'sht chorvachiligining innovatsion rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni aniqlashtirish va ularni ilmiy asosda boyitish orqali mazkur muhim iqtisodiy muammoni hal etish imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir.

Tadqiqot doirasida go'sht chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish



tizimi tarkibiy jihatdan tahlil qilinib, uning eng muammoli bo'g'inlari aniqlashtirildi hamda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari tizimlashtirildi. Xususan, ixtisoslashgan go'sht yo'nalishidagi zotlarga asoslangan holda chorva mollarini parvarishlash va boqish texnologiyalarining innovatsion tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotning axborot bazasini mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda muallif tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari tashkil etdi. Shuningdek, ayrim qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan ham foydalanildi. Tadqiqot jarayonida monografik, abstrakt-mantiqiy va modellashtirish usullari qo'llanilib, o'rganilayotgan muammo tizimli-strukturaviy yondashuv asosida kompleks tarzda tahlil qilindi.


1-rasmda yirik shoxli qoramol go'shtini ishlab chiqarish, qayta ishlash va uni bozor orqali yakuniy iste'molchiga yetkazib berish tizimining strukturaviy-funksional sxemasi tasvirlangan. Mazkur sxemaning yuqori qismida go'sht chorvachiligi tarmog'ining innovatsion salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan kichik tizim aks ettirilgan bo'lib, uning asosini texnik-texnologik, tashkiliy-boshqaruv hamda marketing innovatsiyalari tashkil etadi. Ushbu innovatsiyalar ishlab chiqarish, qayta ishlash va mahsulot realizatsiyasi jarayonlarining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Innovatsion salohiyatni rivojlantirishning bosh maqsadi tarmoqni milliy va global darajadagi ilg'or innovatsiyalar bilan ta'minlash orqali uning uzoq yillar davom etgan zarar bilan ishlash holatini bartaraf etish, shu bilan birga mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va go'sht mahsulotlarining iqtisodiy jihatdan ommabopligini oshirishdan iboratdir. Bunda zamonaviy geoiqtisodiy sharoitlarda agrar sohada texnologik mustaqillikni tiklash, xususan, seleksiya, naslchilik, veterinariya vositalari, ozuqa qo'shimchalari va boshqa muhim yo'nalishlarda milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Go'sht chorvachiligining resurs ta'minoti tizimi biologik, tabiiy-iqlimiy, yer, moddiy-texnik, mehnat va moliyaviy resurslar majmuasidan iborat bo'lib, ular ichida biologik va tabiiy resurslar hal qiluvchi o'rin egallaydi. Xususan, nasldor va tovar yo'nalishidagi qoramollar zaxirasi hamda tabiiy yaylovlardan samarali foydalanish chorvachilik samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu resurslarning holati har bir hududda ishlab chiqarishning tashkiliy, texnologik va iqtisodiy xususiyatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, go'sht chorvachiligi boshqa chorvachilik tarmoqlariga nisbatan kamroq mehnat va kapital talab qilishi bilan ajralib turadi, bu esa ishlab chiqarish resurslari narxining oshib borayotgan sharoitida muayyan iqtisodiy ustunliklarni yuzaga keltiradi. Tarmoq samaradorligini oshirishda resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ayniqsa, yaylovlardan samarali foydalanish asosida tirik vazn o'sishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Tirik vazn o'sishini ishlab chiqarish tizimi esa naslchilik xo'jaliklari, reproduktor va boqish fermalari, ixtisoslashgan komplekslar, veterinariya xizmatlari hamda sun'iy urug'lantirish tizimlari o'zaro integratsiyasi orqali faoliyat yuritadi. Mazkur tizimning asosiy natijasi tirik vazn ortishi bo'lib, uning samaradorligi ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va tannarx ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

Taklif etilayotgan yondashuvni amaliyotga joriy etish go'sht-sut tarmog'ida daromadlarni tartibga solishning yanada takomillashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu mexanizm barcha ishtirokchilar manfaatlarining muvozanatini ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini oshirish hamda qiymat zanjiri bo'yicha yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning adolatli taqsimlanishiga asoslanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirining har bir bo'g'ini — yem-xashak ishlab chiqaruvchilardan tortib chorvachilik xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari hamda savdo tizimigacha bo'lgan subyektlarning yakuniy iqtisodiy natijaga qo'shgan hissasini baholash bo'yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Daromadlarni taqsimlash tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida bozor tamoyillariga asoslangan shartnomaviy munosabatlarni keng joriy etish hisoblanadi. Bunda uzoq muddatli kontraktlar asosida mahsulot yetkazib berish hajmi, sifati hamda narx shakllanish mexanizmlari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Mazkur yondashuv qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun narx xavflarini kamaytiradi hamda qayta ishlash korxonalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi (1-rasm).



1-rasm. Qoramol go'shtini yetishtirish, qayta ishlash va sotish tizimining tarkibiy-funksional sxemasi¹

Bundan tashqari, go'sht-sut tarmog'ida integratsion jarayonlarni rivojlantirish ham muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Agrosanoat klasterlari va kooperatsion birlashmalarni shakllantirish orqali ishlab chiqarish zanjiridagi transaktsion xarajatlarni qisqartirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda yakuniy mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Bunda to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalardan tashqari, investitsion faollikni rag'batlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ozuqa bazasini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ustuvor bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda demografik o'sish va aholi ehtiyojining ortishi fonida mol go'shtiga bo'lgan talab barqaror ravishda oshib bormoqda. Mazkur holat ichki bozorni ushbu turdagi mahsulot bilan ta'minlash darajasining har doim ham talabni to'liq qondirishga yetarli emasligini ko'rsatib, mamlakatning

1 Manba: Сайфетдинов А. Р. Организационно-экономические аспекты инновационного развития отечественного мясного скотоводства // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2025. – Т. 68. – № 1. – С. 403. asosida qayta ishlangan.



ma'lum darajada import qiluvchi davlat sifatida shakllanishiga olib kelmoqda.

“Statistik ma'lumotlar tahlili O'zbekiston Respublikasida qoramol go'shti importi hajmi yillar kesimida turlicha dinamikaga ega bo'lganini ko'rsatadi. 1990-yillarning oxirida import hajmi nisbatan yuqori bo'lib, 1997-yilda taxminan 302,9 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Keyingi davrda, 2000–2010-yillarda import hajmida pasayish tendensiyasi kuzatilib, u nisbatan past darajada saqlanib qolgan.

2000-yillar o'rtalaridan boshlab tashqi iqtisodiy sharoitlar, agrar sohadagi islohotlar hamda mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida import hajmida ma'lum barqarorlashuv yuzaga kelgan. 2010-yildan keyin esa aholi sonining o'sishi, iste'mol talabi ortishi va bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar ta'sirida import hajmida qayta o'sish tendensiyasi shakllangan.

So'nggi yillarda, ayniqsa, 2023–2024-yillarda qoramol go'shti importi keskin ortib, 2024-yilda 710,9 mln AQSh dollariga yetgan. Bu holat ichki iste'mol talabining tez sur'atlarda o'sishi hamda mahalliy ishlab chiqarish uni to'liq qondira olmasligi bilan izohlanadi”.

Hozirgi kunda O'zbekiston mol go'shti importi bo'yicha asosan Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Mo'g'uliston kabi davlatlar muhim tashqi ta'minotchilar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu mamlakatlar chorvachilik sohasida nisbatan rivojlangan bo'lib, arzon va barqaror yetkazib berish imkoniyatlariga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga, import go'sht mahsulotlarining ichki bozorga kirib kelishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat muhitini kuchaytirib, ularning ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bois, import siyosatini shakllantirishda milliy chorvachilik tarmog'ining uzoq muddatli barqaror rivojlanish manfaatlarini hisobga olish hamda ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion tahlil asosida ixtisoslashgan go'sht chorvachiligi texnologiyasi ko'rib chiqilganda, ushbu tizim uchta asosiy bosqichdan iborat ekanligi aniqlanadi: (1) go'sht yo'nalishidagi zotlarga mansub buzoqlarni olish va ularni onalari bilan birga yaylov sharoitida emizikli davrda boqish; (2) buzoqlarni sutdan ajratilgandan so'ng ularni o'stirish hamda zarur hollarda qo'shimcha semirtirish orqali tirik vaznini oshirish; (3) yosh mollarni yakuniy bosqichda yuqori vaznli so'yim holatigacha yetkazish. Mazkur har bir bosqich innovatsion yondashuvlarni kompleks ravishda joriy etishni talab qiladi.

Ushbu ishlab chiqarish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish ixtisoslashgan go'sht chorvachiligining funksional xususiyatlarini chuqurroq o'rganish hamda uni turli tabiiy-iqlim sharoitlariga mos holda hududiy joylashtirish imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, yaylov bazasi mavjud hududlarda mazkur texnologiyani samarali qo'llash muhim iqtisodiy natijalar beradi.

Tizimning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri qoramol podasining zot tarkibidir. Ixtisoslashgan go'sht chorvachiligida yuqori mahsuldor go'sht yo'nalishidagi zotlar yoki ularning duragaylaridan foydalanish an'anaviy sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan asosiy farqni tashkil etadi. Shu sababli O'zbekiston sharoitida go'sht yo'nalishidagi qoramollar ulushini bosqichma-bosqich oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, mamlakatda sut chorvachiligi salohiyatini saqlab qolish, ayrim hududlarda esa uni yanada rivojlantirish zarur. Bu, o'z navbatida, yuqori mahsuldor sut zotlarining genetik resurslarini kengaytirish va chorvachilik tarmoqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda, go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikni rivojlantirish resurslardan samarali foydalanish asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda yuqori mahsuldor go'sht zotlarining naslchilik bazasini tezkor shakllantirish, ularni tovar fermalarida ko'paytirish hamda ixtisoslashgan chorvachilik korxonalarida qo'shimcha semirtirish maydonlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida mazkur innovatsion texnologiyalarni joriy etish yaylov resurslaridan oqilona foydalanish, yem-xashak bazasini mustahkamlash hamda go'sht yetishtirish hajmini oshirish orqali ichki bozorni mahalliy mahsulot bilan ta'minlash darajasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikni barqaror rivojlantirish uchun mavjud naslchilik resurslarini yanada takomillashtirish va kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Shu sababli ayrim hollarda ichki ishlab chiqarish jarayonida tashqi genetik materiallardan, jumladan, yuqori mahsuldor naslli buqalar va urug' materiallaridan foydalanish tarmoqning genetik salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish maqsadida asosiy e'tibor go'sht yo'nalishidagi yuqori mahsuldor qoramollar genetik bazasini ichki sharoitda shakllantirish va kengaytirishga qaratilishi lozim bo'lib, bunda naslchilik zavodlari va reproduktor xo'jaliklar tizimini modernizatsiya qilish, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashgan, kasalliklarga chidamli va yuqori mahsuldor zotlarni seleksiya asosida ko'paytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Go'sht yo'nalishidagi qoramol bosh sonini takror ishlab chiqarishni tashkil etish O'zbekiston sharoitida ham ixtisoslashgan go'sht chorvachiligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda buzoqlarni olish jarayonini ham sof go'sht yo'nalishidagi zotlarni ko'paytirish, ham sut yo'nalishidagi sigirlarning ma'lum qismiga



elita go'sht zotlariga mansub buqalar urug'i bilan sun'iy urug'lantirish orqali olingan duragay qoramollardan foydalanish asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy jihatdan ikkinchi yondashuv ko'proq samarali bo'lib, u go'sht yo'nalishidagi sof zotli ona podani kengaytirishga bo'lgan investitsion ehtiyojni kamaytiradi, qisqa muddatda esa yuqori go'sht mahsuldorligiga ega duragay buqachalarni yetishtirish va semirtirish hajmini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sut chorvachiligining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, asosiy urg'u nasl tarkibida sigirlarni yangilash va sut ishlab chiqarish hajmini saqlash uchun zarur bo'lgan urg'ochi buzoqlar ulushini oshirishga qaratiladi, bu esa erkak buzoqlar ulushini imkon qadar kamaytirish sharoitida amalga oshiriladi. Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda esa otalantirish jarayonini mavsumiy turli davrlarda tashkil etish, ya'ni sinxronizatsiya usullari va sun'iy urug'lantirish texnologiyalaridan foydalanish orqali ommaviy tug'ruq davrlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining ritmliligini ta'minlab, yaylov resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada buzoqlarni emizikli davrda yaylovda boqish bilan uyg'unlashtirish orqali yem-xashak xarajatlarini kamaytirish mumkin bo'ladi, shu bilan birga mavsumiylik semirtirish va qayta ishlash korxonalarini faoliyatini yanada samarali rejalashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli mazkur jihatni chuqur iqtisodiy tahlil qilish va optimallashtirish tarmoq samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [14].

Ishlab chiqarish siklini tashkil etish nuqtayi nazaridan ixtisoslashgan go'sht chorvachiligida ikki asosiy bosqich ajratiladi va ularning har biri O'zbekistonning hududiy resurs salohiyatiga mos ravishda shakllantirilishi lozim. Birinchi bosqich naslchilik podasini shakllantirish, go'sht yo'nalishidagi sigirlardan buzoqlar olish, ularni onalari bilan birga yaylov sharoitida emizikli davrda boqish hamda sutdan ajratilgandan so'ng buzoqlarni alohida guruhlarga ajratib, keyingi o'stirish (doraщивание) jarayonini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich esa o'stirilgan buqachalarni yakuniy semirtirish yoki yaylovda qo'shimcha vazn to'plash orqali so'yimga tayyorlash va realizatsiya qilish bilan yakunlanadi, ayrim hollarda esa yakuniy semirtirish o'rniga yaylovda nagul tizimi qo'llanilishi mumkin.

Mazkur texnologiya boshqa chorvachilik tarmoqlaridan, xususan, sut chorvachiligi va cho'chqachilikdan farqli ravishda, birinchi bosqichda ekstensiv yaylov tizimining ustunligi bilan ajralib turadi. Ushbu bosqichning iqtisodiy samaradorligi bevosita zot tarkibi, yaylov resurslari sifati hamda hududning tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lib, aynan shu davr ishlab chiqarish tannarxining eng yuqori qismini shakllantiradi. Shu sababli ishlab chiqarishning yakuniy rentabelligi ko'p jihatdan aynan boshlang'ich bosqichni to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston sharoitida go'sht chorvachiligi ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichini hududiy ixtisoslashuv asosida joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni naslchilik va buzoq yetishtirish yo'nalishidagi xo'jaliklarni yaylov resurslari yetarli bo'lgan hududlarda, semirtirish va yakuniy boqish korxonalarini esa yem-xashak va konsentrat ozuqa bazasi rivojlangan hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ishlab chiqarishning biologik, texnologik va iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, turli ixtisoslashuvga ega korxonalar — buzoq yetishtirish, emizikli boqish, o'stirish va semirtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zarur. Ushbu mexanizm ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlab, resurslardan samarali foydalanish hamda yakuniy mahsulot tannarxini optimallashtirish imkonini beradi.

Go'sht yo'nalishidagi ixtisoslashgan qoramolchilikda yem-xashak bazasini shakllantirish ekstensiv va intensiv yondashuvlarning uyg'unlashuvi asosida amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda tabiiy yaylovlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi, chunki yaylovlarda sigir va buzoqlarni boqish ishlab chiqarish siklining boshlang'ich bosqichida xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi hamda buzoqlarni emizikli davrda saqlash samaradorligini oshiradi. O'zbekiston sharoitida yaylov resurslaridan oqilona foydalanish, ayniqsa cho'l va yarim cho'l hududlarida, go'sht tannarxini pasaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda yaylovlarning yetishmasligi yoki ularning degradatsiyaga uchrashi sababli qo'shimcha yem-xashak yetishtirishni tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini ma'lum darajada oshirsa-da, barqaror yem bazasini shakllantirish orqali chorvachilikning uzluksizligini ta'minlaydi. Intensiv yem ishlab chiqarish, xususan, yemlik ekinlar yetishtirish, go'sht chorvachiligining umumiy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yakuniy semirtirish bosqichida konsentrlangan yemlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu bosqichda energiya va oqsilga boy ozuqalar go'sht chiqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yemlik don yetishtirish hajmining ortishi qishloq xo'jaligining tovarlilik darajasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq chorvachilik va dehqonchilik tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya orqali bu muvozanatni saqlash mumkin.

O'zbekiston sharoitida qo'shimcha yem resurslari sifatida qand lavlagi qayta ishlash chiqindilari, vinochilik va pivo sanoati qoldiqlari hamda kraxmal-patoka ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish muhim iqtisodiy



ahamiyat kasb etadi. Shu sababli go'sht chorvachiligi korxonalarini joylashtirishda yaqin atrofdagi oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalarining mavjudligi ham inobatga olinishi lozim [15].

Ixtisoslashgan go'sht chorvachiligi nisbatan kam kapital talab qiluvchi tarmoq bo'lib, u yirik kapital inshootlar yoki murakkab texnologik uskunalarga katta ehtiyoj sezmaydi. Bu esa uni investitsion jihatdan qulay va import texnologiyalariga kamroq bog'liq tarmoqqa aylantiradi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda mehnat sarfi ham nisbatan past bo'lib, ayniqsa yaylov sharoitida boqish, monitoring va oziqlantirish jarayonlarini qisman mexanizatsiyalash yoki avtomatlashtirish imkoniyati mehnat unumdorligini oshiradi.

Biroq ushbu afzalliklarga qaramay, go'sht chorvachiligi uzoq ishlab chiqarish sikli, past reproduktiv ko'rsatkichlar hamda monoprodukt yo'nalishi kabi iqtisodiy va biologik cheklovlarga ega. Shu sababli tarmoqni rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish bosqichlarini optimal tashkil etish hamda yaylov va yem bazasini muvozanatli rivojlantirish asosiy strategik vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Ixtisoslashgan go'sht chorvachiligining innovatsion rivojlanishi uning barcha funksional yo'nalishlarini kompleks tarzda qamrab olishi lozim. Bunda texnik-texnologik, tashkiliy-boshqaruv hamda marketing innovatsiyalarini ishlab chiqaruvchilar darajasida ham, butun tarmoq miqyosida ham joriy etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayon organik iqtisodiy, ilmiy-texnologik hamda tabiiy-biologik omillar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur.

Go'sht chorvachiligida innovatsion rivojlanishning asosini texnik va texnologik yangiliklar tashkil etadi, chunki aynan ular ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali mahsuldorlikni, mehnat unumdorligini hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishga chorvachilik genetikasi va seleksiyasi yutuqlari, ya'ni yangi go'sht yo'nalishidagi zotlar va ularning tiplarini yaratish, hayvonlarni boqish, parvarish qilish va oziqlantirishning zamonaviy texnologiyalari, shuningdek, yaylov xo'jaligini ilmiy asosda tashkil etish kabi yo'nalishlar kiradi.

Mazkur innovatsiyalarning asosiy maqsadi mavjud resurs cheklovlari — yer, mehnat va moliyaviy imkoniyatlar sharoitida raqobatbardosh go'sht ishlab chiqarish hajmini oshirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologiyalar samaradorligini baholashda mahsuldorlik darajasining o'sishi, mehnat unumdorligining yaxshilanishi, mahsulot tannarxining pasayishi hamda sifat ko'rsatkichlarining oshishi kabi indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va taklufar

Ixtisoslashgan go'sht chorvachiligida innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish, ayniqsa reproduktiv jarayonlarda ilg'or yondashuvlarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, go'sht yo'nalishidagi zotlarning embrionlarini oldindan urug'lantirilgan sut yo'nalishidagi sigirlarga ko'chirib o'tkazish orqali egiz buzoqlar olish amaliyoti ilmiy jihatdan istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda sut mahsuldorligi yuqori bo'lgan ona sigirlar ikki buzoqni emizikli davrda boqish imkoniyatiga ega bo'lib, bu biologik salohiyatdan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yaylovlardan foydalanish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish O'zbekiston sharoitida dolzarb masala hisoblanadi. Yaylovlardan foydalanishda rotatsion, frontal va erkin boqish tizimlari asosida ilmiy asoslangan yaylov aylanmasini joriy etish, elektr to'siqlar hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish chorva ozuqa bazasidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ayrim rivojlangan chorvachilik tizimlarida raqamli monitoring va masofaviy boshqaruv texnologiyalarining qo'llanilishi esa yaylov yuklamasini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, go'sht chorvachiligida tashkiliy-boshqaruv innovatsiyalarining ahamiyati tobora ortib borayotgani kuzatiladi. Ushbu yo'nalish ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari, xo'jaliklar o'rtasidagi kooperatsiya va integratsiya, mehnat resurslarini samarali boshqarish hamda tarmoq ichidagi ixtisoslashuvni chuqurlashtirish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Mazkur innovatsiyalar ishlab chiqarish joylashuvi, masshtab samarasi va ixtisoslashuv darajasi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida go'sht chorvachiligini rivojlantirishda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kooperatsiya tizimini yanada kengaytirish hamda nasl va tovar chorva savdosi bo'yicha bozor infratuzilmasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu jarayon narxlarning barqaror va adolatli shakllanishini ta'minlash hamda tarmoq rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, hududlar o'rtasida yaylov resurslaridan oqilona va muvozanatli foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuksaltirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish jarayonini bosqichlarga ajratish asosida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda buzoqlarni olish va emizikli boqish nisbatan kichik xo'jaliklarda, yakuniy semirtirish esa yirik ixtisoslashgan komplekslarda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv kapital aylanish tezligini oshirish, transport xarajatlarini optimallashtirish hamda hududiy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Marketing innovatsiyalari esa go'sht chorvachiligida mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshirishga qaratiladi. Bunda yangi bozor segmentlarini aniqlash, go'sht mahsulotlarining qo'shimcha qiymatini oshiruvchi qayta ishlash va qadoqlash texnologiyalarini joriy etish, narx shakllanishini prognoz qilish hamda zamonaviy

savdo kanallarini rivojlantirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilanishi lozim. Ushbu chora-tadbirlar tarmoqning umumiy iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan omillar tovar ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini realizatsiya qilishda qulay narx shartlariga ega bitimlar ulushini oshirish imkonini beradi hamda shu orqali ixtisoslashgan go'sht chorvachiligi tarmog'ining umumiy rentabelligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cundiff L. V., Gregory K. E. Beef cattle breeding. – Department of Agriculture, Agricultural Research Service, 1977. – №. 286.
2. Berry, D. (2023). Beef Cattle Breeding. In: Spangler, M.L. (eds) Animal Breeding and Genetics. Encyclopedia of Sustainability Science and Technology Series. Springer, New York, NY. https://doi.org/10.1007/978-1-0716-2460-9_1116
3. Kluyts, JF & Naser, Frederick & Bradfield, Michael. (2004). Development of breeding objectives for beef cattle breeding: derivation of economic values: review article. South African Journal of Animal Science. 33. 10.4314/sajas.v33i3.3768.
4. Herring A. D. Beef cattle production systems. – CABI, 2014.
5. Johnston D. J., Tier B., Graser H. U. Beef cattle breeding in Australia with genomics: opportunities and needs //Animal Production Science. – 2012. – Т. 52. – №. 3. – С. 100-106.
6. Amer P. R. et al. Breeding objectives for beef cattle in Ireland //Livestock Production Science. – 2001. – Т. 67. – №. 3. – С. 223-239.
7. Балаева С. И. Экономические основы подпрограммы развития животноводства в Кабардино-Балкарской республике //Региональная экономика: теория и практика. – 2005. – №. 2. – С. 24-30.
8. Горнин Л. В. Государственное регулирование мясного животноводства //Вопросы государственного и муниципального управления. – 2018. – №. 3. – С. 65-87.
9. Трухачев В. И., Лещева М. Г., Юлдашбаев Ю. А. Мясной рынок России: анализ состояния и перспективы развития //Достижения науки и техники АПК. – 2012. – №. 11. – С. 3-9.
10. Буяров В. С. Экономико-технологические аспекты производства продукции животноводства и птицеводства // Вестник аграрной науки. – 2019. – №. 6 (81). – С. 77-88.
11. Холова М. С., Курбонова Ф., Маликов И. А. Основные критерии и индикаторы устойчивого обеспечения страны мясной продукцией скотоводства //Вестник Таджикского национального университета. Серия социально-экономических и общественных наук. – 2019. – №. 4-1. – С. 97.
12. Джамалова А. С. Современное состояние животноводства и обеспечение населения мясом в Республике Узбекистан //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 539-542.
13. Наумов, Ю., Пугач, И., Наумов, Ю., & Пугач, И. (2019). Проблемы и перспективы развития животноводства в Узбекистане. Unknown. <https://doi.org/10.22004/AG.ECON.296102>
14. Сайфетдинов А. Р. Организационно-экономические аспекты инновационного развития отечественного мясного скотоводства // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2025. – Т. 68. – № 1. – С. 403.
15. Бабаева З. Д. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ ЕТАКЧИ СОҲА–ЧОРВАЧИЛИКНИНГ РИВОЖИ ВА УНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ АҲАМИЯТИ //Вестник КГУ им. Бердаха. №. – 2022. – Т. 2. – С. 236.
16. Abdulazizovich A. A., Ugli E. D. B., Olimovna K. D. Assessment of the quality of economic growth in agriculture // Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие. – 2022. – Т. 5. – №. 5. – С. 61-70.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100